

"ERKIN VOHIDOV – ELPARVAR SHOIR"

*Ergasheva Nilufar Akramjon qizi
O'zbekiston Milliy universiteti o'zbek
filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi.*

Annotation: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri, O'zbek qahramoni Erkin Vohidov she'rlaridagi qochirimlar, tashbeh, tazod kabi she'riy san'atlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: "Shoir yuragi", "Buloq", Anvar Obidjon, "Orzu chashmasi", bulbul va boshqalar .

"Isyonkorlik, chorlovchanlik, olishqoq falsafa, teran mushohada she'riyat kemasining yelkani uchun yo'lchi shamol vazifasini o'taydi, shiddatiga shiddat qo'shami. Ammo bu shiddat ko'psonli "oddiy she'rxonlar"ni o'ziga eliktiruvchi unsurlar – so'zlar shirasi, tasvir nafosati, ifoda nazokati ila uyg'unlasha olmas ekan, she'r quruqshoqlanib, qofiyalashtirilgan nasr tusiga kiradi, ta'sir doirasi torayadi, bir to'p ziyorolar davrasidan nariga o'tishi qiyin kechadi. Shu ikki muhim jihatni o'z ijodida omixtalashtira olish kamdan-kam shoirga nasib etgan"-deya yozganida Anvar Obidjon haq edi. Bu shoir Erkin Vohidov edi.

Erkin Vohidov — nozik tuyg'ularni she'r orqali yorqin ifodalangan shoirdir. Uning she'rlari keljak avlodning taqdiri uchun havotirga to'la, muallif zamонавиҳ hayotning chuqur ma'naviy va axloqiy jarayonlarini tushunishga intiladi. Uning "Minora" she'ri o'tmisx xotirasini saqlab qolish haqida; "Samarqand kechasi" - buzilmas vaqt aloqasi haqida; "Sharq afsonasi" - inson hayotining mazmuni haqida; "Shoir yuragi", "Abay", "Yo'qotilgan she'r" - shoirning fuqarolik burchi haqida.

E. Vohidov ijodida hajviy yo'naliш alohida o'rin egallaydi. "Donish-qishloq latifalari" Matmus haqida bo'lib, shoir unda laganbardorlik, sotqinlik, xasislik, tamagirlilikni mazax qiladi. She'rlari hayot kuzatuvlari, chuqur ma'nosи, o'ziga xos ifoda vositalari bilan qiziqarli.

"Tuyaqush" masalida E.Vohidov jonzodning ikkilamchi nomlanishidan maromida foydalangan, ya'ni - tuya hamda qush. Shunday qilib, hajmi katta bo'lman, lekin ma'nosiz, munofiq va qo'rkoq insonlar haqidagi juda o'tkir she'r yaraladi. Erkin Vohidovning muhabbatga yo'g'rilgan she'rlari ham e'tiborga loyiq. Shoirni g'azal janrining chinakam davomchisi desak, mubolag'a bo'lmaydi. "Bulbul tuni bilan noladi", "G'uncha" kabi she'rlarida an'anaviy g'azal belgilari - ixtirosli fojiaviy sevgini jonlantiruvchi bulbul va atirgul, Farhod va Majnun timsollari mavjud.

Isyonkorlik, chorlovchanlik, olishqoq falsafa, teran mushohada she'riyat kemasining yelkani uchun yo'lchi shamol vazifasini o'taydi, shiddatiga shiddat

qo'shami. Ammo bu shiddat ko'psonli "oddiy she'rxonlar"ni o'ziga eliktiruvchi unsurlar – so'zlar shirasi, tasvir nafosati, ifoda nazokati ila uyg'unlasha olmas ekan, she'r quruqshoqlanib, qofiyalashtirilgan nasr tusiga kiradi, ta'sir doirasi torayadi, bir to'p ziyolilar davrasidan nariga o'tishi qiyin kechadi. Shu ikki muhim jihatni o'z ijodida omixtalashtira olish kamdan-kam shoirga nasib etgan.

An'analarga ehtiyotkorona rioya qilgan holda, muallif o'zining mustaqil sevgi tushunchasini yetkazib beradi. "Orzu chashmasi" she'rida u chashma oldida o'tirgan qiz timsolini gavdalantiradi. Real lavhalardan chekingan holda, shoir lirk sevgi tarixini, to'g'rirog'i, sevgi umidini yaratadi. She'rdagi lirk qahramon sevgisi yer tubidan chiquvchi musaffo chashma kabi. Porloq tuyg'u umididagi she'r qahramoni mag'rur va soddadir.

"O'zbegim" qasidasida shoir xalqning eng qadrli yutug'i — Vatan erkinligi va mustaqilligini tarannum etadi. Erkin Vohidov "o'rdani vahshiyona toptashdi va yer jarohatlari sezildi" misralari orqadi ona diyorining tarixiy o'tmishiga yuzlanadi. Erkin Vohidov esa ona xalqi – o'zbegimga qasida bag'ishlaydi. Bu shoir ijodidagi dastlabki badiiy pulitsistik isyon deya baholasak yanglishmagan bo'lamic, negaki, bunday ijodiy jasorat shunisi bilan alohida ajralib turadiki, qasida yozilgan davr sobiq sho'ro mustamlakasi barcha millatlar «sovet xalqi» degan umumiyy, sun'iy nom bilan atalar, insonlarning ma'lum bir millat vakili ekani bilan faxrlanishlari millatchilik deya atilib, bunday ijod na'munasini yaratgan ijotkorlar ham siyosiy ham ijtimoiy taziq ostiga olinar edi. Ko'rinish turibdiki adib ijodi iste'dodining dastlabki isyonini ayni "O'zbegim" qasidasida ulkan bir portlash ko'rinishida, so'z qudrati, millat qudrati, ijodkorning mahoratida yaqqol ko'rinati deb aytsak aslo yanglishmaymiz.

Bu o'rinda qasidani maxsus sharhlab o'tirishga hojat yo'q: u haqda ko'p yozildi. "Asar darsliklardan joy olgan. Millatning sha'ni-g'ururi toptalgan, tarix darsliklarimizda xalqimizning shonli o'tmishi qora bo'yoqlar bilan bulg'angan, har tongda kuylanadigan davlat madhiyasi ulug' og'aga, partiyaga hamdu sanolar bilan boshlanadigan zamonlarda kechmishning shonli sahifalarini ulug'lovchi "O'zbegim" qasidasi g'ayrirasmiy milliy madhiyaga aylandi." Ehtimol, uning she'rlarida yuzaki o'rinalar bordir, ammo adib hech qachon yolg'on gap aytmagan, mustabid, mafkura, siyosat nog'orasiga o'ynab vijdonini sotmagan, murosasozlik yo'liga kirmagan. U o'tkinchi mayllarga berilmay, so'z san'atining azaliy muammosi – shaxs jumbog'i, ijtimoiyadolat tuyg'usi ifodasi bilan qiziqlidi. Shoir azaliy erkinlik uchun intilish va diyor ravnaqini "Alpomish", "Toro'g'li" kabi dostonlarida ifodalagan. Vatanni afsonaviy qahramoni bo'lmish baxodirlarning qanotli tulpori - kuch, qudrat va erkinlik timsoli bilan uzviy va aniq bog'lay olgan. Shoir Robert Rojdestvenskiy uning ijodi bilan zavqlanib, shunday yozgan: Menga uning "Nido" dostoni juda manzur bo'ldi, uning bengal shoiri Nazrulla Islom haqidagi ko'p qirrali va jarangdor "Ruhlar isyonini" dostoni yordi. Bu yerda mualliflik ovozi barcha imkoniyat va qirralarni namoyon etgan

- shivirlashdan qichqiriqqacha. “Fikrimcha, bular — juda yaxshi va aniq she’rlar. Shuningdek, ularda dono xotirjamlik va kenglik mavjud. Yana, og‘riq bor. Haqiqiy inson og‘rig‘i...” - deb yozadi rus shoiri Robert Rojdestvenskiy o‘zbek shoiri Erkin Vohidov haqida.

80-yillarga kelib Erkin Vohidov ijodida milliy adabiyotimiz istiqboli uchun muhim ahamiyatga molik yangi tamoyillar ro`y berdi.

“Yani, avval So‘z kelgan, Olloxning “bo‘l” degan nidosi kelgan va mayda zarrachalar olamidan yangi Olam yaralgan. Agar shu ilohiy So‘z kelmaganda olam kukunligicha qolgan bo‘lardi” Adib ijodida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan bu asar ijodkorning butun bir hayotidagi so‘z bilan bo‘g‘liq bo‘lgan o‘y-hayollar, ilmiy-nazariy qarashlar, insoniy kechinmalar, qadriyat va urf-odatlar, milliy madaniy shuningdek diniy qarashlarda o‘z aksini topgan. Shuningdek inson va insoniyat hayotida so‘zning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi, millatlarni bir biriga bo‘g‘lovchi va shu bog‘lash orqali butun insoniyat bir-biriga naqadar kuchli bo‘g‘langanligini chuqur his etishga qaratilgan asosli qarashlari o‘z aksini topgan. Erkin Vohidov shaxsiyati va ijodi butun O‘zbek xalqi tomonidan qanchalik qadrlanishi va e’zozlanishi, asarlari xalqning barcha qatlamlari tomonidan sevib o‘qilishi hech qanday isbot talab etmaydigan haqiqat ekanligi barchamizga ayon, shuni alohida aytib o‘tish joizki adibning qanchalik serqirra ekanligini u tomonidan yaratilgan sheriyl hamda nasriy asarlarida ko‘tarilgan mavzular misolida ko‘rishimiz mumkin jumladan; “So‘z latofati” kitobida “Ibtido”, “Uch daryordan suv ichgan dengiz”, “Bo‘yinbog‘ desang o‘larmiding”, “Axiy men bitdim”, “Kenguru va belmes” kabi ilmiy nazariy qarashlari jamlangan maqolalari adibning naqadar falsafiy va ilmiy dunyo qarashga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Yozuvchi, o‘zining nafaqat eng sara asarlari bilan balki, o‘zining badiiy publististik maqolalari bilan ham kitobxonlar qalbini zabit etganligini ham alohida takidlab o‘tishimiz lozim, shuningdek adibning radio va televideniya orqali jiddiy chiqishlar shuningdek, matbuotda birin-ketin o‘tkir publitsistik maqolalar e’lon qildi. 1999 yil Erkin Vohidovga O‘zbekiston qahramoni unvoni berilib, shoир xizmatlari sharaflandi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:

1. Erkin Vohidov “So‘z latofati”
2. Ximik1991 ochiq ensiklopediya
3. 2020 yil 20 may “Adiblar hiyoboni” ochilishidagi aytib o’tgan edi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev
4. Hoshimov O` O`zbeklar.-T: O`qituvchi. 2006 yil
5. Karimov A. Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: Sharq. 1997 yil
6. Erkin Vohidov asarlar 6-jild “Erk saodati” “Sharq” 2018 y